



“TARBIYA” FANINI O‘QITISHDA KUNDALIK-AMALIY TOPSHIRIQLARNING PEDAGOGIK ZARURATI:TAJRIBA VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Abduvaliyev N.A.

*Andijon davlat universiteti boshlang‘ich ta‘lim metodikasi kafedrasida
katta o‘qituvchisi*

Tayanch so‘zlar: ta‘lim tizimi, XXI asr ko‘nikmalari, ijtimoiy-emotsional ta‘lim (SEL), “Tarbiya” fani, kelajak uchun tayyorgarlik, tanqidiy fikrlash, kreativ fikrlash, maktab islohotlari, mustaqil hayotga tayyorgarlik, xalqaro tajriba.

Ключевые слова: система образования, навыки XXI века, социально-эмоциональное образование (СЭО), наука «Образование», подготовка к будущему, критическое мышление, креативное мышление, школьные реформы, подготовка к самостоятельной жизни, международный опыт.

Key words: educational system, 21st century skills, social-emotional education (SEL), "Education" science, preparation for the future, critical thinking, creative thinking, school reforms, preparation for independent life, international experience.

Резюме:

Ushbu maqolada ta‘lim tizimining rivojlanishi va kelajakka tayyorlanish muhimligi haqida so‘z yuritiladi. XXI asrning murakkab va tez o‘zgaruvchan sharoitlariga moslashish uchun maktablar o‘quvchilarni noaniqlikda yashashga tayyorlashi kerakligi ta‘kidlanadi. O‘zbekiston ta‘lim tizimida olib borilayotgan islohotlar, yangi metodikalar, jumladan, ijtimoiy-emotsional ta‘lim (SEL) va “Tarbiya” fanining ahamiyati, yoshlarni kelajakdagi hayotga tayyorlash, ularni kreativ va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalariga ega bo‘lishga undash masalalari ko‘tariladi. Tarbiya fani va metodikalarining xalqaro tajribalar asosida ishlab chiqilishi, o‘quvchilarning mustaqil hayotga tayyorlashdagi o‘rni tahlil qilinadi.

Резюме:

В данной статье говорится о развитии системы образования и важности подготовки к будущему. Подчеркивается, что для адаптации к сложным и быстро меняющимся условиям XXI века школы должны готовить учащихся к жизни в условиях неопределенности. Реформы, проводимые в системе образования Узбекистана, новые методы, в том числе социально-эмоционального воспитания (СЭО) и значение науки «Образование», готовящие молодых людей к будущей жизни, вооружающие их навыками творческого и критического мышления, вопросы мотивация повышена. Анализируется развитие педагогической науки и методики на основе мирового опыта, их роль в подготовке студентов к самостоятельной жизни.

Summary:

This article talks about the development of the education system and the importance of preparing for the future. It is emphasized that in order to adapt to the complex and rapidly changing conditions



of the 21st century, schools should prepare students to live in uncertainty. The reforms carried out in the education system of Uzbekistan, new methods, including socio-emotional education (SEL) and the importance of the science of "Education", preparing young people for future life, equipping them with creative and critical thinking skills issues of motivation are raised. The development of educational science and methods based on international experiences, their role in preparing students for independent life is analyzed.

Jamiyatda ta'lim sohasidagi vaziyatga ta'sir qiluvchi asosiy o'zgarishlar uning rivojlanish sur'atlarini tezlashtirish natijasida amalga oshiriladi. Pirovardida umumta'lim maktablari o'z o'quvchilarini o'zi kam biladigan kelajak hayotiga tayyorlashi lozim bo'ladi. 2024-yilda birinchi sinfga kirgan bolalar mehnat faoliyatini taxminan 2080-yilgacha davom ettiradilar. XXI asr o'rtalarida dunyo qanday bo'lishini nafaqat pedagoglar, balki futurologlar uchun ham tasavvur qilish qiyin. Shuning uchun maktab o'quvchilarini noaniqlik sharoitida hayotga tayyorlashi, ularda harakatchanlik, dinamizm, konstruktivlik, axborot bilan ishlash qobiliyati kabi fazilatlarni rivojlantirishi lozim bo'ladi. Bu esa o'quvchilarning mustaqil hayotida eng zaruriy qobiliyat hisoblangan o'zini-o'zi tarbiyalashning tarkibiy qism hisoblanadi.

Respublikamizda yoshlar tarbiyasi sohasini ilmiy-metodik ta'minotini amalga oshirish, buyuk allomalarimiz va jadidlarning ushbu yo'nalishdagi qarashlarini ilmiy tadqiq etish asosida zamonaviy metodikalarni ishlab chiqish, o'quvchilar tarbiyasi masalasida mahalla va ota-onalar o'rtasidagi samarali hamkorlikni ta'minlash, ota-onalar va o'qituvchilar uchun ushbu mavzuga oid o'quv va ommabop adabiyotlar yaratishni tizimli yo'lga qo'yish borasida keng qamrovli ilmiy-metodik tadqiqotlar olib borilmoqda.

“Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi Prezident qarori bilan pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o'rgatish milliy-tadqiqot instituti tashkil etildi. Shuningdek, “Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy institutini tashkil etish to'g'risida” Prezident qarori qabul qilindi. Qarorga ko'ra, Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti tashkil etildi. Institut yangi tarbiya metodikalarini yaratish va amaliyotga joriy qilish bo'yicha oliy ta'limdan keyingi ta'limni amalga oshiruvchi davlat muassasasi hisoblanadi hamda tarbiya sohasini takomillashtirishga oid ilmiy asoslantirilgan istiqbolli takliflar ishlab chiqadi.

Ta'limning asosiy vazifasi o'quvchida jamiyatda muvaffaqiyatli hayot kechirishi uchun bugun va kelajakda kerak bo'ladigan ko'nikmalarni shakllantirishdir. Buning uchun kreativ fikrlash bugungi yoshlar ega bo'lishi kerak bo'lgan muhim ko'nikmadir. Bu ko'nikma ularga doimiy tarzda va shiddat



bilan o‘zgarayotgan, oddiy savodxonlikdan tashqari “XXI asr” ko‘nikmalariga ega kadrlarni taqozo etayotgan dunyoga moslashishga ko‘maklashadi. Umuman olganda, bugungi o‘quvchi kelajakda hozir hatto mavjud bo‘lmagan sohalarda ishlashi, yangi muammolarni yangi texnologiyalar orqali hal etishi kutilmoqda. O‘quvchilarda kognitiv mustaqillikni rivojlantirish ularga tobora murakkablashayotgan mahalliy va global muammolarni noodatiy yondashuv orqali hal etish imkonini beradi. Yuqoridagi talablar ta’lim tizimi uchun juda muhim ekanligi, aksariyat xorijiy mamlakatlardagi kabi, ta’lim va fan sohalari rivojlanishini baholash va monitoring qilish orqali ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan ilg‘or tajribalarni sohaga jalb qilish kerakligini anglatadi.

Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining 2025-2026-o‘quv yilidan boshlab umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida tajriba-sinov tariqasida bosqichma-bosqich jahonda tan olingan ijtimoiy-emotsional ta’lim (Social and Emotional Learning – SEL) metodikalarini joriy qilish nazarda tutilgan. Ijtimoiy-emotsional ta’lim 5quyida keltirilgan 5 ta kompetentsiyalarni qamrab oladi:

- o‘z-o‘zini anglash;
- o‘z-o‘zini boshqarish;
- ijtimoiy xabardorlik;
- tengdoshlari bilan munosabatlarni shakllantirish;
- mas’uliyatli qaror qabul qilish.

Ijtimoiy-emotsional ta’lim metodikalari umumiy o‘rta ta’lim hamda pedagog kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash dasturlariga kiritilmoqda. Shuningdek, pedagogik oliy ta’limda bo‘lajak o‘qituvchilarni ham tayyorlash mazmuniga mazkur ta’lim ham o‘z aksini topadi.

Hozirgi kunda Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi bilan birgalikda tarbiya sohasidagi ilmiy tadqiqotlarni muvofiqlashtiruvchi respublika kengashi faoliyatini tashkil etish borasida faoliyat olib borilmoqda. Tarbiya sohasidagi mavjud muammolar institutning ilmiy-tadqiqot yo‘nalishlarini belgilab beradi. Tarbiya metodikalarini ishlab chiqish bo‘yicha yetakchi xorijiy universitetlar va ilmiy markazlar bilan hamkorlik o‘rnatilishini, qo‘shma tadqiqotlar olib borilishi Tarbiya fani sohasidagi tadqiqotlarning dolzarbligi hamda ahamiyatini belgilaydi.

Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi, Yoshlar ishlari agentligi, O‘zbekiston mahallalari uyushmasi hamda Milliy gvardiya bilan hamkorlikda umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida “Farzand tarbiyasida ota-onaning mas’uliyati” mavzusida tarbiya haftaliklarini o‘tkazib

borish borasida ilmiy-tashkiliy ishlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, ota-onalarning farzand tarbiyasi borasidagi bilimni oshirishga qaratilgan “Namunali ota-onalar maktabi” loyihasini amalga oshirish, milliy tarbiyaning hududiy an’analarini o‘rganish, tiklash va zamonaviy ma’naviy-axloqiy tarbiya tizimiga joriy qilishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishga e’tibor qaratimoqda.

Amalga oshirilayotgan islohotlarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchi-yoshlarni har tamonlama komil inson bo‘lishi asosiy maqsad ekanligini anglash mumkin bo‘ladi.

Jumladan:

- o‘quvchilarda “huquqbuzarlikka qarshi immunitet”ni shakllantirishda “maktab – ota-ona – mahalla” hamkorligi zanjirini yaratish bo‘yicha ilmiy asoslangan o‘quv va ommabop uslubiy tavsiyalar ishlab chiqish;

- ota-onalarning farzand tarbiyasiga oid dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qiladigan xalqchil tildagi adabiyotlar yaratilishini tashkil etish;

- ota-onalar, o‘qituvchilar va o‘quvchilar uchun yoshlar tarbiyasiga oid raqamli kontentlarni joylashtirish maqsadida “milliytarbiya.uz” elektron platformasi, uning mobil versiyasini ishlab chiqsin hamda uni zamonaviy, qiziqarli kontentlar bilan to‘ldirib borish;

- yoshlar ta’lim-tarbiyasiga bag‘ishlangan podkast, videokontentlar yaratish va ommaviy axborot vositalari orqali yoritish ishlarini tizimli tashkil qilish.

Tarbiya fani integrativ xususiyat kasb etib, fanlararo aloqadorlikni ta’minlaydi. Tarbiya fani falsafa, siyosatshunoslik, madaniyatshunoslik, sotsiologiya, psixologiya, huquqshunoslik, mantiq, etika va estetika, ma’naviyat asoslari, tarix, etnografiya, etnomadaniyat, etnopedagogika kabi bir qator fanlar bilan uzviq aloqadorlikka ega.

Globalashuv jarayonlarining bugungi jarayonlari, fan-texnika taraqqiyoti, innovatsion jamiyatga bo‘lgan ehtiyoj yoshlar uchun ko‘plab imkoniyatlar yaratmoqda. Bu esa ular oldiga tezkor qarorlar qabul qilish, innovatsion tafakkurni shakllantirish, intellektual salohiyatni oshirish hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik hayotiy talablarni qo‘ymoqda. Bu esa Tarbiya fani mazmunini belgilab beradi. O‘zbekiston Respublikasida Tarbiya fani kontsepsiyasi davlatning ta’lim-tarbiya sohasidagi siyosatini amalga oshirishda mavjud bo‘lgan dolzarb muammolarni hal etishga yo‘naltiradi. Kontsepsiya yosh avlod tarbiyasidagi ishlarni yuqori bosqichga olib chiqishga yo‘naltirilgan vazifalarni, maqsadlarni aniqab beradi.

Tarbiya fani kontsepsiyasida belgilangan yo‘nalishlar mamlakat yoshlarini ma’nan va jismonan barkamol qilib tarbiyalash, iqtidori va salohiyatini ro‘yobga



chiqarish, ularni davlat va jamiyatning rivojiga keng jalb etish, tashabbuslarini yetarli darajada qo‘llab-quvvatlash maqsadida huquqiy asoslar, iqtisodiy imkoniyatlar va tashkiliy mexanizmlarni yanada kengaytirishga xizmat qiladi. Tarbiya fanini o‘qitishdan maqsad yoshlarni ma‘nan va jismonan barkamol qilib tarbiyalash, iqtidori va salohiyatini ro‘yobga chiqarish, ularni davlat va jamiyatning rivojiga keng jalb etish, tashabbuslarini yetarli darajada qo‘llab-quvvatlash maqsadida huquqiy asoslar, iqtisodiy imkoniyatlar va tashkiliy mexanizmlarni yanada kengaytirishga xizmat qilishdir. Ta‘lim oluvchilarning yoshi, rivojlanishi hamda psixofiziologik xususiyatlarini inobatga olgan holda ularning ongiga umuminsoniy qadriyatlar va yuksak ma‘naviyatni yanada chuqur singdirish, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ta‘lim muassasalaridagi ma‘naviy-tarbiyaviy ishlarni yangicha asosda tashkil etishdan iborat.

Tarbiya fani o‘quvchilarni kasbga tayyorlash mexanizmlarini takomillashtirish, mustaqil hayotda zarur bo‘ladigan zamonaviy bilimlarni shakllantirish, o‘quvchilarni hayotiy ko‘nikmalarga tayyorlashda muhim ahamiyatga ega.

Tarbiya fanining vazifalari quyidagicha belgilangan:

– komil insonni voyaga yetkazishning bir butun holatdagi muammolarini hal qilish;

– ta‘lim tizimida olib borilayotgan islohotlarni amalga oshirish sharoitida o‘quvchilarning ma‘naviy-axloqiy tarbiyalashda ta‘lim-tarbiya samaradorligini oshirish va dunyo talablari darajasiga olib chiqish masalalariga ijobiy yondashish;

– nazariy bilimlarni ta‘lim muassasalarining amaliy hayoti bilan bog‘lab o‘quvchilarning dunyoqarashini shakllantirish;

– rivojlangan xorijiy mamalakatlardagi ta‘lim-tarbiya jarayoniga doir eng ilg‘or tajribalarni bo‘lajak o‘qituvchilarga chuqurroq o‘rgatish va amaliyotga qo‘llashni tashkil etish.

Tarbiya fanini o‘qitishning pedagogik zarurati hozirgi davrdagi o‘quvchilar bilan bog‘liq vaziyat tahlili bilan izohlanadi. Aksariyat o‘quvchilar XXI asrda yashashga tayyor emaslar, ya‘ni zamonaviy jamiyat ehtiyojlaridan kelib chiqqan kompetensiyalariga to‘laqonli ega emas. Maktab ta‘limi esa ko‘p jihatdan bu kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilmagan. O‘quvchilar egallagan bilim va ko‘nikmalarni qayerda ishlatishni bilishmaydi, ko‘p maktablarda eskicha usulda ta‘lim berilyapti sir emas. Aslida maktab o‘quvchilarini “o‘rganishga o‘rgatish” lozim, ya‘ni mustaqil bilim olishga o‘rgatishi kerak bo‘ladi. Darsliklar va undagi o‘quv topshiriqlari mazmuni ham bunday topshiriqlarni bajarishga mo‘ljallanmagan.

Tadqiqotchi M.Altibaevaning fikriga ko'ra, umumta'lim maktabi bitiruvchisi ta'lim muassasasida o'qish natijasida olingan, uning shaxsiy va kasbiy fazilatlarini o'zida mujassam etgan bo'lajak mutaxassis shaxsiyatining shakllanganligi bilan tavsiflanadi.

Patrick O'Donnell maqolasida "umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilari mustaqil hayotga o'tishda qanday fazilatlarga ega bo'lishi kerak"? savoliga bir nechta tadqiqotchilarning fikrlarini jamlagan holda, ularni quyidagilar deb ko'rsatadi: asosiy ko'nikmalar va bilimlar: savodxonlik, arifmetik hisoblash va texnologiya; kengaytirilgan tarkib: ijtimoiy tadqiqotlar, fanlar, tillar, san'at, kodlash va boshqalar; tanqidiy bilimlar: fikrlash, muammolarni hal qilish, dizayn fikrlash, ijodkorlik, axborot tahlili; ijtimoiy-hissiy: o'sish tafakkuri, qat'iyatlilik, o'z-o'zini anglash, jamoada ishlash va hamkorlik.

Ma'lumki, kishiik jamiyatida ta'lim madaniyatning tarkibiy qismi sifatida shakllanib kelgan ekan, o'quvchining kundalik-amaliy kompetentsiyalari maktabdan tashqari vaqtda ham jamiyatdagi ko'plab sohalarga bog'liq ravishda shakllanib, rivojlanib boradi. Oilada ta'limga munosabatlarning shakllanganligi, akademik resurslarning mavjudligi, ta'lim olishga shart-sharoitlar va otanonaning ta'lim olishga yuqori prioritetdagi qadriyat sifatida qarashi muhim mezonlar hisoblanadi.

Hozirgi kunda Tarbiya fanidan milliy o'quv dasturi ishlab chiqilmoqda. Milliy o'quv dasturi doirasida o'quvchilarga endi nazariy bilim emas, hayotiy ko'nikma va malaka berish ustida ish olib borilmoqda. Tarbiya fanida amaliy mashg'ulotlar, shaxsning motivatsiyasiga ta'sir etuvchi metodlarning ahamiyati yuqoriligini ko'rsatadi. Shuningdek, jamoaviy, hamkorlikda ishlash, keys, muammoli vaziyatlar yordamida o'qitishning o'quvchilarda tasavvurlarning shakllanishi analiz-sintez fikrlash qobiliyatining ortishiga va amaliy mashg'ulotlarni ishlash ko'nikmasining boyishiga xizmat qiladi.

Umumta'lim maktablari Tarbiya darsligi tahlili quyidagi xulosalarni shakllantirishga sabab bo'ldi:

1. Tarbiya darsligi "Odobnoma", "Vatan tuyg'usi", "Milliy istiqloq g'oyasi va ma'naviyat asoslari" hamda "Dunyo dinlari tarixi" fanlarini birlashtirdi.

2. Darsliklarini tayyorlashda Yaponiyaning "Axloq ta'limi", Singapurning "Fe'l-atvor va fuqarolik ta'limi", Buyuk Britaniyaning "Tafakkur", "Xulq ta'limi" fanlari va darsliklari yaqindan o'rganildi.

3. Ilk marotaba darsliklarda XXI asr ko'nikmalari deb nom olgan "yumshoq ko'nikmalar" joriy qilindi. Darslik orqali o'quvchida bilim berishdan tashqari ko'nikma shakllantiriladi. Yangi fan darsliklaridagi amaliyotga yo'naltirilgan mashg'ulotlar va mavzular o'quvchida muvaffaqiyat motivlarini uyg'otadi,



faol fuqarolik pozitsiyasi shakllantiriladi. O‘quv fani mohiyati 50% nazariy, 50% amaliy asosga qurilgan.

4. Tarbiya darsliklarida “role-model”, ya’ni “namuna keltirish” zamonaviy pedagogik metodidan unumli foydalanilgan. Unda milliy va xalqaro miqyosda yuksak natijaga erishgan insonlar yutuqlari tahlil qilinadi.

Xalqaro pedagogik amaliyotda o‘quvchilarning ta’limdagi muvaffaqiyatini ta’minlashda fan dasturlari uzviyligi va uzluksizligi muhim o‘rin tutadi. Tahlillar bu sohada quyidagi birlamchi muammolar uchrashini ko‘rsatadi:

- uzluksiz ta’lim turlariaro fan xususiyatidan kelib chiqqan holda obyekt va subyekt tanlovi va mazmunida nomutanosibliklar mavjudligi;
- uzluksiz ta’lim turlariaro bosqichlarda mavzularning aynan yoki mazmunan takrorlanish borligi;
- takrorlanish va ortiqcha vaqt sarflash evaziga o‘qituvchi hamda o‘quvchining vaqti besamar sarflanishi;
- ta’lim bosqichlarida ayrim mavzularga ortiqcha vaqt ajratilganligi, nazariy mashg‘ulotlarga amaliyga nisbatan ko‘p vaqt ajratilganligi va h.

Tarbiya fani o‘quv darsliklari tahlili shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilarning o‘rganilgan bilimlarning amalda qo‘llay olish qobiliyatiga e’tibor qaratilmoqda, Finlandiya tajribasi asosida ishlab chiqilgan yangi o‘quv darsliklarida 4K tamoyilini qo‘llagan holda shakllantirilgan. Tabiiy fanlar bo‘yicha yangi avlod darsliklarining o‘quv-metodik komplekslari aynan 4K tamoyili asosida shakllantirilmoqda. 4K tamoyili quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- kritik (tanqidiy) fikrlash;
- kollaboratsiya (jamoaviy ishlash);
- kreativlik (ijodkorlik);
- kommunikatsiya (muloqot ko‘nikmalari).

2024-2025-o‘quv yilidan boshlab Tarbiya fanida “5E” yondashuvi singdirilmoqda. 5E yondashuvi konstruktivizm ta’lim nazariyasiga asoslangan metodlardan biri. Konstruktivizmga ko‘ra, o‘quvchilar bilimni samarali o‘zlashtirishlari uchun ularga bilimni tayyor holda berish kerak emas, balki shu bilimni (tushunchani) o‘zlari yaratishlariga (construct), kashf qilishlariga imkon berish kerak. 5E metodining nomi bu metoddagi bosqichlarning birinchi harflaridan kelib chiqqan:

1. Engage (jalb qilish, qiziqtirish) – o‘quvchilarning o‘tilayotgan mavzu haqida nimani bilish va bilmasliklarini aniqlash, ularni mavzuga qiziqtirish bosqichi.



2. Explore (tadqiq qilish) – o‘quvchilar konkret vazifalar orqali (masalan, tajriba o‘tkazish, kuzatish, muammoni hal qilish) orqali yangi mavzuni tadqiq qiladilar.

3. Explain (tushuntirish) – o‘qituvchi o‘quvchilarning oldingi bosqichidagi tajribasiga tayangan holda mavzuni tushuntiradi.

4. Elaborate (ishlab chiqish) – o‘quvchilar yangi bilimni yangi vaziyatda qo‘llab ko‘radilar.

5. Evaluate (baho berish) – o‘qituvchi o‘quvchilarni baholaydi.

Konstruktivizm nazariyasiga asoslangan bunday metodlar ko‘p va ularning nomlari xilma-xil bo‘lishi mumkin, lekin bunday metodlarning muhim xususiyatlari – bilimni o‘quvchiga tayyor holda bermaslik hamda o‘quvchining mavjud bilimi va hayotiy tajribasiga (schema) tayanish.

Hozirgi zamonaviy ta‘lim o‘quvchilarni majburiy mavzular, o‘quv materiallari bilan o‘quv jarayoniga jalb eta olmaydi. O‘quvchilarning qiziqishi, dunyoqarashini hisobga olgan holda turli topshiriqlar, didaktik o‘yinlar, interfaol metodlar, hayotiy-amaliy faoliyatga bog‘liqligini keltirib chiqaruvchi emotsional-labilizatsiyani rivojlantirish, mavzuni nima maqsadda o‘rganish zarurligini tushuntirish orqali dars mashg‘ulotlarini tushuntirishni taqozo etadi.

Ma‘lumki, so‘nggi yillarda yuz berayotgan keskin yangilanish va tub o‘zgarishlar insoniyat hayotidagi barcha sohalarni globallashtirish va integratsiyalashuv jarayonlari nuqtayi nazaridan yangicha qarashlar, tushunchalar va munosabatlar bilan qayta ko‘zdan kechirishni taqazo etmoqda, jumladan ta‘lim sohasida ham. Hozirgi kunda butun dunyo bo‘ylab har bir sohada globallashtirish va integratsiya jarayonlari o‘z aksini ko‘rsatmoqda, shu jumladan ta‘lim ham davlat siyosatining dolzarb va ustuvor sohasiga aylandi. Ta‘lim sohasini yangicha innovatsion g‘oyalar asosida rivojlantirish bo‘yicha islohotlar amalga oshirila boshlandi. Jamiyat va hayotda sodir bo‘layotgan yangilanishlar ta‘lim tizimiga ham yangicha innovatsion yondashuvni, ta‘lim, fan va ishlab chiqarish o‘rtasidagi integratsiya jarayonlarini yanada tezlashtirishga zamin yaratadi, natijada yangicha innovatsiyalarni ta‘lim jarayoniga tatbiq etish dolzarb masalalar qatoridan joy oldi.

Umumta‘lim maktablari uchun o‘quv-metodik majmualarni ishlab chiqishda “davlat ta‘lim standartlari talablari asosida o‘quvchilar tomonidan bilim, ko‘nikma, malaka hamda kompetentsiyalarning to‘liq o‘zlashtirilishiga erishish”, “o‘quvchilarda mustaqil va erkin fikrlashni hamda ularning ijobiy qobiliyatlarini rivojlantirish”, “o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarash va global tafakkur yuritish kompetentligini shakllantirish” kundalik-amaliy



kompetentsiyani rivojlantirishda kompetentsiyaviy yondashuvning muhimligini ko'rsatadi.

O'quvchilarning Tarbiya fanidan bilimlarini rivojlantirishda o'quv-metodik majmualarga qo'yiladigan didaktik talablar hal qiluvchi ahamiyatga ega. Didaktik talablar "matnlar axborot berishga emas, balki o'quv fanining mazmun-mohiyatini tushuntirish maqsadlariga xizmat qilishi", "qiziqarli, lo'nda va hamma uchun qulay va tabaqalashtirilgan bo'lishi", "ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, vatanparvarlik va millatlararo totuvlik talablariga javob berishi, aniq dalillarga asoslangan materiallardan tarkib topishi" belgilab beradi.

Fanlar mazmunini "kundalik hayot va amaliyot o'rtasidagi bog'liqligini ta'minlashga, olingan bilimlarni amaliyotga qo'llay olish layoqatlari shakllantirilishiga, boshqa o'quv fanlari bilan uzviy bog'liqlikni ta'minlashga yo'naltirilgan bo'lishi" asosiy didaktik talablarni qamrab oladi. O'quv-metodik majmualar tarkibiga rasmlar ko'rinishidagi illyustratsiyalar, xaritalar, chizmalar, sxemalar, jadvallar, diagrammalar va fotosuratlar bilan boyitilishi asosiy didaktik talablardan biridir.

Tarbiya fanida qo'llaniladigan kundalik-amaliy topshiriqlar o'quvchilarning kognitiv mustaqilligini rivojlantirishi uchun o'quv fani mavzularining mazmunan yaxlitligi ta'minlangan bo'lishi, savol va topshiriqlar aniq ifodalangan bo'lishi va o'quvchilarni fikrlashga, yozishga, tasvirlashga, chizma chizishga, hisoblashga, amaliy ishlarni bajarishga, tajribalar o'tkazishga o'rgatishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish nazarda tutilgan bo'lishiga urg'u berish lozim. Shuningdek, topshiriqlar o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishga oid matnlar va rasmlar, izohli lug'at, texnik ijodkorlik va mantiqiy tafakkurni o'stirishga qaratilgan loyihalash hamda modellashtirishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim.

Tarbiya – shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma'naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon, shuningdek insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lgan xususiyatlarga ega bo'lishini ta'minlash yo'lida ko'riladigan chora-tadbirlar yig'indisi. Tarbiya insonning insonligini ta'minlaydigan eng qadimiy bo'la olmaydi. Chunki odam va jamiyatning mavjudligini ta'minlaydigan qadriyatlar tarbiya tufayligina bir avloddan boshqasiga o'tadi. Tarbiya – ish, hunar, odob-axloq o'rgatishga va umuman kishining g'oyaviy va ma'naviy qiyofasini shakllantirishga qaratilgan ta'lim sistemasi. Shunday ta'lim sistemasi natijasida singdirilgan xislat, fazilat, odob-axloq.

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirgan holda ta'limning pirovard maqsadi umumta'lim maktabi o'quvchilarni jamiyatda muvaffaqiyatli hayot kechirishi



uchun zaruriy kundalik-amaliy kompetentsiyalarni rivojlantirishdan iborat ekanligini ta’kidlash mumkin. Kognitiv mustaqillik doimiy tarzda va shiddat bilan o’zgarayotgan, “XXI asr” ko’nikmalari uchun muhim hisoblanib, o’quvchilarning potentsial yosh mutaxassis sifatida jamiyatga moslashishga ko’maklashadi. Bugungi o’quvchidan yangi muammolarni yangi texnologiyalar orqali hal etishi kutilmoqda. O’quvchi kognitiv mustaqilligi rivojlanganligi bilan tobora murakkablashayotgan mahalliy va global muammolarni innovatsion yondashuv orqali hal etish imkonini beradi. O’z navbatida bu talablar ta’lim tizimi uchun juda muhim bo’lib, aksariyat xorijiy mamlakatlardagi kabi, ta’lim va fan sohalari rivojlanishini baholash hamda monitoring qilish orqali ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan ilg’or tajribalarni sohaga jalb qilish kerakligini anglatadi. Umumiy o’rta ta’lim o’quvchilarini egallashi lozim bo’lgan kompetentsiyalarini shakllantirish tizimni tubdan o’zgartirish lozim, ya’ni, o’quvchilarning layoqati va mehnat bozori talablaridan kelib chiqib, kundalik-amaliy topshiriqlardan foydalanish lozim.

Adabiyotlar:

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi “Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida” gi PQ-231-son Qarori // <https://lex.uz/uz/docs/-6981085>.
2. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi “Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy institutini tashkil etish to’g’risida” gi PQ-232-son Qarori // <https://lex.uz/uz/docs/-6981166>.
3. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi “Umumiy o’rta, o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limining Davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to’g’risida” gi 187-son Qarori / “Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi”, 30.09.2019 y., 09/19/821/3833-son; 30.09.2019 y., 09/19/822/3840-son.
4. Алтыбаева М.А., Турдубаева К.Т. Формирование профессиональной компетентности в курсе методики преподавания математики / Вестник Томского государственного педагогического университета 2 (117), 2012. – С. 53-57.
5. Масалимова А.Р., Терещенко А.Г., Бубнова И.С. Гуманистическая стратегия процесса современного обучения в высшей школе // Казанский педагогический журнал, 2019. № 5(136). – С. 52–56.
6. Tarbiya o’quv darsligi: 11-sinf uchun darslik / D.Kenjaye, N.Ismatova, Z.Islomov, D.Rahimjonov, D.Ruziyeva, Z.Zamonov, O.Mahmudov, S.Shermuhammedova, S.Akkulova, N.Xolmuxamedova, Z.Jabborova. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2021. – 128 b.
7. Tillayeva Z.Y. O’quvchilarning tabiiy-ilmiy savodxonligini rivojlantirish: “Ta’limdagi xalqaro tadqiqotlarning Yangi O’zbekiston taraqqiyotidagi o’rni” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya maqolalar to’plami. – Toshkent, Ta’lim sifatini baholash bo’yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi, 2022. – 46-52 b.